PEDAGOGIKA

UDK: 371+18+17 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss2/a12**

BO‘LAJAK O‘QITUVICHLARDA INTELLEKTUAL MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING INTEGRATIV TA’LIM TEXNOLOGIYALARI

ИНТЕГРАТИВНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ В БУДУЩИХ УЧИТЕЛЯХ

INTEGRATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES OF INTELLECTUAL CULTURE DEVELOPMENT IN FUTURE TEACHERS

Qurbonov Jasurbek Akmaljonovich[1]

[1]**Qurbonov Jasurbek Akmaljonovich** – Qo‘qon Davlat Pedagogika instituti Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrasi katta o‘qituvchisi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning intellektual madaniyatini rivojlantirishning integrativ ta’lim texnologiyalari, o‘stirish, globallashuv sharoitida erkin, ozod va fikran mustaqil, har qanday axborotni mantiqiy tahlil qila olish ko‘nikmasini rivojlantirishda falsafa fanining o‘qitilishi muhim ahamiyat kasb etishi to‘g‘risidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Аннотация

В данной статье представлены мнения о значении преподавания философии в развитии интеллектуальной культуры будущих учителей, в развитии умения свободно и самостоятельно логически анализировать любую информацию в условиях глобализации.

Abstract

In this article, opinions on the importance of teaching philosophy in the development of the intellectual culture of future teachers, in the development of the ability to logically analyze any information freely and independently in the context of globalization are presented.

Kalit so‘zlar: *bo‘lajak o‘qituvchilar, fanlararo integratsiya, integrativ-differentsial yondashuv, falsafiy ta’lim, aqliy salohiyat, intellektual madaniyat, falsafiy tanqid,* innovatsion usul, *pedagogik metod va vositalar.*

Ключевые слова: *будущие учителя, междисциплинарная интеграция, интегративно-дифференциальный подход, философское образование, интеллектуальный потенциал, интеллектуальная культура, философская критика, инновационный метод, педагогические методы и средства.*

Key words: *future teachers, interdisciplinary integration, integrative-differential approach, philosophical education, intellectual potential, intellectual culture, philosophical criticism, innovative method, pedagogical methods and tools*.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda yuz berayotgan tub o‘zgarishlar ta’sirida ta’lim tizimini amaliy ehtiyojlarni yanada izchil ta’minlovchi sohaga aylantirishda bo‘lg‘usi mutaxassislarni kasbiy faoliyat jarayonida raqobatbardoshligini oshirishda amaldagi o‘quv rejalariga tanlov asosidagi fanlar loginini kiritilganligi g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Bizning fikrimizga, o‘zgaruvchan bozor sharoitida bo‘lg‘usi mutaxassisning yashovchanligini ta’minlash yo‘llaridan biri sifatida ularning kasbiy faoliyati uchun zaruriy bo‘lgan malakaviy tayyorgarlikni aniqlashda intellektual faoliyatni yuritish yoki uning natijalarini tatbiq etish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni ham inobatga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bizning fikrimizcha, bunday maqsadni izchil ravishda amalga oshirish uchun barcha ta’lim yo‘nalishlarining yuqori bosqichlarida tanlov asosida fanlar qatorida “Intellektual faoliyat madaniyati” fanini o‘qitishni joriy etish mumkin. Bu fanni o‘qitishdan ko‘zlanadigan asosiy ta’limiy maqsad bo‘lg‘usi mutaxassislarni o‘zgaruvchan bozor talablaridan kelib chiqqan holda kasbiy faoliyat doirasida yashovchanlik xususiyatiga ega bo‘lgan[1], raqobatbardosh yangi tovar yoki xizmat turini yaratish bo‘yicha intellektual g‘oyani ilgari surish, uni ro‘yobga chiqarish orqali mehnat jarayonini yaxshilash, barqaror foyda olishga qaratiladigan intellektual faoliyat asoslari bilan tanishtirish, ana shunday faoliyat madaniyatini shakllantirishdir. Mazkur fanni o‘qitishda quyidagi ta’limiy maqsadlar amalga oshiriladi:

-talabalarga reproduktiv va intellektual faoliyatning o‘zaro bog‘liqligi, intellektual faoliyatning hayotiy zaruratlar, bozor sharoitida yuzaga keladigan raqobat jarayonida yashovchanlikni ta’minlash usuli sifatidagi tavsifi, uning turlari, intellektual jarayon, uni ta’minlash uchun zarur resurslar, malakaviy tayyorgarlik darajasi haqidagi nazariy bilimlarni singdirish;

-ularda intellektual faoliyat strategiyasini aniqlash, optimal va operativ vazifalarni yaxlit strategiya asosida hal qilish intellektual g‘oya va konsepsiyani yaratish, uni amalga oshirish, yaratilgan innovatsiyani joriy etish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma, malakalarni shakllantirish orqali intellektual faoliyat madaniyatini singdirish;

-o‘quv rejasida ko‘zda tutilgan auditoriya, auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar, mustaqil ishlar, ilmiy – tadqiqot ishlari, malakaviy amaliyot doirasida talabalarni intellektual izlanishlarini yo‘lga qo‘yish, oliy o‘quv yurtida, boshqa korxona va muassasalarda yuritilayotgan intellektual faoliyatda ishtirok etishlarini ta’minlash.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Oliy o‘quv yurtlari tomonidan mutaxassislarni tayyorlashni insonparvarlashtirish muammosini yechish yo‘llarini izlash ham o‘quv fanlarining o‘qitilishini ixchamlashtirish va jadallashtirish yo‘li bo‘yicha, ham talabalarning yakka tartibda bilim orttirish fazilatlarini, ularning qiziqishlari, moyilliklarini hisobga olinishini ta’minlash bo‘yicha olib borilmoqda. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida ta’limni takomillashtirish sharoitida aniq metodologik asoslarni izlash dolzarb tus oldi.

Kasbiy ta’lim sifati muammolarini tahlil qilish jarayonida metodologik asos sifatida pedagogik loyihalash namoyon bo‘ladi. “Pedagogik loyihalash - pedagogning pedagogik masalalarni yechishga qaratilgan ketma-ket o‘zaro bog‘liq harakatlari tizimi yoki oldindan rejalashtirilgan pedagogik jarayonning amaliyotga ketma-ket mujassamlanishidir”. Loyihalash muammosi o‘zining rivojlanish tarixiga ega. “Pedagogik loyiha” atamasi ko‘proq quyidagi ma’noga ega bo‘lgan pedagogik ishlarda uchraydi: ta’limda, loyiha - ta’lim tizimini loyihalashtirishga qaratilgan holda rasmiylashtirilgan pedagogik g‘oyalar, pedagogik jarayonlar va texnologiyalar majmuasi, shuningdek ularning amaliy joriy yetilish dasturlaridir[2]. Bu holda loyihalash, Ye.S.Zair-Bekning fikricha, bor narsani nimaga aylantirish zarurligi yuzasidan g‘oyalar va harakat dasturini ishlab chiqarishdan iborat. Ishlab chiqilgan g‘oyalar va harakat dasturi (mazkur tadqiqotda – talaba shaxsining o‘ziga xos ta’limiy yo‘naltirilganligi) loyihalash mahsuli sifatida ro‘y beradi. Loyihalash kasbiy faoliyat sohasi sifatida texnika, qurilish, ishlab chiqarishda paydo bo‘ldi, so‘ng iqtisodiyot, boshqarish, ijtimoiy sohadagi faoliyatga, xususan, pedagogik faoliyatga tarqaldi. V.E.Radionovaning fikricha, loyihalashning ko‘p qirrali madaniy-tarixiy fenomeni o‘z faoliyatining barcha sohalarida hozir bo‘lgan istalgan kishining hayotiy faoliyatning tub mohiyatidan kelib chiqadi. Ilmiy yoki amaliy jihatdan kasbiy pedagogik faoliyat bu qatorda mustasno emas.

Kishining maqsadga muvofiq harakati shu faoliyatdan olinishi mumkin bo‘lgan natijalarni rejalashtirilishiga bog‘liqligi oldindan aniqlangan.

Asrlar davomida pedagog o‘zining kundalik ta’lim berish va tarbiyalash amaliyotida turli-tuman qarorlarni qabul qilishga to‘g‘ri kelgan va bu aynan uning shu kabi qarorlarning oqibatlarini yakka tartibda rejalashtirishiga, uning oldingi amaliy tajribasi ostida ishlab chiqilgan kasbiy his-tuyg‘usiga asoslangan.

O‘rta Osiyoning buyuk mutafakkirlarining asarlarida, jumladan, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Muhammad Tarag‘ay Mirzo Ulug‘bek, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiylarning asarlarida, shuningdek, qadimgi yunon faylasuflari Aristotel, Sokrat, Platonning asarlarida, hozirgi kunda ham biz uchun g‘oyat darajada qiziqarli bo‘lgan, xususan, ta’lim - tarbiyaning maqsadi va vazifasi, mazmuni va usullariga oid tashhisiy mulohazalar va fikrlar mavjud.

Abu Ali ibn Sino, ulug‘ qomusiy olim, inson mohiyati va moliyaviy kuchi muammosini tadqiq qilar ekan, abstrakt narsalarning g‘oyaviy yetilish ma’nosini “hayotiy narsalarni fikran qarash” sifatida aniqladi. Shunga ko‘ra odam uchun bilim atrof dunyoda mo‘ljalni to‘g‘ri olish uchun, hodisalarni tushuntirish va oldindan ko‘rish uchun, faoliyatni rejalashtirish va amalga oshirish va boshqa bilimlarni ishlab chiqish uchun zarur bo‘ladi. Bilim - voqelikni o‘zgartirishning juda muhim quroli. U tez rivojlanayotgan o‘zgaruvchan tizimdan iborat, uning o‘sishi hozirgi sharoitda o‘zining sur’ati bo‘yicha boshqa har qanday tizimning o‘sishiga qaraganda jadalroqdir. Kishilarning qayta o‘zgartuvchi amaliy faoliyatida bilimlardan foydalanish qoidalarning maxsus guruhi bo‘lishini taqozo qiladiki, bu qoidalar qanday holatda, qaysi vosita yordamida va qanday maqsadlarga erishish

uchun u yoki bu bilim zarur bo‘lishini ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, bilim faoliyat tizimiga kiradi va maxsus shakl sifatida namoyon bo‘ladi, uning asosida yesa faoliyatdagi ish tartibi bayon yetiladi.

Mashhur o‘zbek pedagogi Abdulla Avloniy o‘z asarlarida ko‘p marta o‘z diqqatini pedagogikaning vazifalarini tahlil qilishda, uning tarbiya haqidagi fan sifatida tarbiyaviy faoliyatning san’at sifatidagi ahamiyatini yoritishga qaratdi. Abdulla Avloniyning fikricha, «tarbiya san’atlarning oliysidir, san’at yesa hali mavjud bo‘lmagan tomon intiladi, uning oldida ijodiyotining kelajakdagi maqsadi va g‘oyaviy siymosi gavdalanadi». Mutafakkir pedagoglar qoldirgan boy ijodiy merosdan olingan misollar shuni ma’lum qiladiki, ular pedagogik rejalashtirish (loyihalashtirish) qadimdan muhokama markazida bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Keltirilgan fikrlar, shubhasiz, hozirgi zamon pedagoglarining ishlarida mavjud bo‘lgan pedagogik rejalashtirish vazifalarini chuqurroq tahlil qilish uchun boshlang‘ich nuqta vazifasini o‘taydi[3]. Loyihalash – bu muhitni fikran o‘zgartirishdir. Loyiha axborot muhiti doirasidagi faoliyat natijasi, buyum yesa - moddiy obyektlar muhitidagi faoliyat natijasidir. Shu yondashuvdan kelib chiqib, Ya.Ditrix tomonidan loyiha buyumni mavhum tasavvur yetishni beruvchi tushunchalar tizimi, deb tushuntiriladi; yig‘ma tahlil natijasida olingan moddiy jamlanma xususiyatlari majmuasi, u yig‘ma tahlil natijasida olinadi va ijodiy yoki ijro yetish niyatini ifodalaydi. U holda loyihalashga harakatning ayrim usulini tanlash sifatida qaraladi, xususiy holda –tizimli harakatning mantiqiy asosi sifatida tushuniladi. Loyiha – loyihachi tomonidan bunyod yetilgan yangi bino, u holda loyihalash jarayonining o‘zini ijodiyot tarzida qarash mumkin, ya’ni biror yangi narsani hosil qilish jarayoni, deb. Ijodiyotning mohiyati falsafada o‘rganiladi. Dialektik materializm nuqtai nazaridan, “ijodiyot - kishining haqiqatning obyektiv qonunlari asosida odam va odamzod maqsadi va ehtiyojiga muvofiq tabiiy va sotsial dunyoni o‘zgartiruvchi faoliyatidir”[4]. Ijodiyot o‘zining takrorlanmaslik, asillik va ijtimoiy-tarixiy noyobligi tavsiflanadi. Ijodga qo‘yilgan vazifani amalga oshirish maqsadi bo‘lgan ixtirochilikday pragmatik qarash ham tuzish-qurishdek tuyuladi. Loyihalash ijodiy jarayon sifatida, ilhomlanish, hissiy cho‘kish, tafakkur va tasavvurning birgalikda ishlashi, ongning yeng ko‘p o‘tkirlashuvi, qo‘yilgan maqsadga erishish yo‘llari va uning natijasi munavvarligi hamda yeng yorqinligi kabi bosqichlarni bosib o‘tadi.

Loyihalash muammolari tadqiqotchilari bu faoliyatning ijodiy turdaligi haqidagi fikrni quvvatlaydilar. P.Xill, ijodiyotni “fikrning ma’lumlar chegarasidan tash-qari tomonga muvaffaqiyatli uchishidir”, “loyihalay olish – bu bir vaqtda ham fan va ham san’atdir” deb umumlashtiradi, ya’ni ham ilmiy va ham amaliy ijodiyotning belgilariga egadir.

Loyihalash asoslarini o‘zlash-tirish dolzarb, chunki, birinchidan, mazkur texnologiya ta’lim tizimini tashkil qilishning barcha bosqichlarida keng qo‘llanishga ega. Ikkinchidan, ijtimoiy madaniyat loyihalash mantig‘i va texnologiyasini bilish, tahliliy, tashkiliy boshqarish vazifalarini samarali amalga oshirishga imkon beradi. Uchinchidan, loyihaviy texnologiyalar mutaxassisning raqobat-bardoshligini ta’minlaydi.

Ta’limning “texnik” va “ijtimoiy” jihatlari o‘rtasidagi farqni topish ham biz “texnologiya” tushunchasini qanday ta’riflashimizga bog‘liq.

O‘rganishdan farqli o‘laroq, “texnologiya” tushunchasi xususida olimlar o‘rtasida yetarlicha aniq kelishuv mavjud. Dastlabki bosqichda, “texnologiya” deganda shunday jarayon tushuniladiki, bunda uning yordamida odamlar o‘z ehtiyoj va istaklarini qondirish uchun tabiatni o‘zgartiradilar[5]. Tarix(dan ilgarigi davrlar) nuqtayi nazardan olib qaralganda, texnologiya tushunchasi inson o‘z tevarak-atrofiga moslashish va uni nazorat qilish uchun ish qurollari va hunarmandchilik bilan muntazam shug‘ullanganini anglatadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Insonning texnologiyalardan foydalanishi, asosan, 2 million yil avval tabiiy resurslarning oddiy ish qurollariga aylanishi bilan boshlangan, deb ta’riflanadi. Bu omon qolish va tevarak-atrofni o‘zlashtirish (masalan, nayzaning yaratilishi) hamda bezash kabi hissiy maqsadlar (masalan, g‘or suratlarini chizish)ga intilishi boisdan sodir bo‘lgan. Texnologiya shuning uchun ham insonni hayvonlardan ajratib turadigan xususiyatlardan biri hisoblanadi.

Loyihaviy faoliyat quyidagilarni o‘z ichiga oladi: muammo tahlili; maqsadning qo‘yilishi; unga erishish uchun vosita tanlash; axborotni izlash va qayta ishlash, uni tahlil qilish va umumlashtirish; olingan natijalarni baholash va xulosalar.

Predmetli faoliyat uch qismdan tashkil topadi: predmetli, faoliyatli va muloqatli. Loyihaviy faoliyat rivojlantiruvchi ta’lim uslublaridan biri bo‘lib, mustaqil tadqiqotchilik ko‘nikmasini hosil qilishga yo‘naltirilib (muammo qo‘yish, axborotlarni to‘plash va uni qayta ishlash, tajriba-sinovlar

o‘tkazish, olingan natijalarni tahlil qilish), ijodiy qobiliyat va mantiqiy fikrlashning rivojlanishiga olib keladi, ta’lim jarayonida olingan bilimlarni birlashtiradi, hayotiy muhim muammolarni mohiyatini tushunishga yordam beradi.

Loyihaviy faoliyatdan kuzatilayotgan maqsad ta’lim oluvchilar tomonidan turli o‘quv fanlarini o‘rganish davrida mujassamlashgan bilim, mahorat va ko‘nikmalarni tushunish va qo‘llay olishdan iborat.

Pedagogning loyihalash faoliyatidan kuzatilgan maqsad:

- rejalashtirishga o‘rgatish (pedagog maqsadni aniqlay olishi, ish davomida qo‘yilgan maqsadga erishishning asosiy bosqichlarini ifoda eta olishi);
- axborot materiallarni yig‘ish va uni qayta ishlash ko‘nikmasini shakllantirish (pedagog kerakli axborotni tanlay olishi va undan to‘g‘ri foydalana olishi lozim);
- tahlil qila olish ko‘nikmasi (ijodiy va tanqidiy tafakkur);
- yozma hisobot tuza olish ko‘nikmasi (ish rejasini tuza olishi, axborotlarni aniq taqdimot etish, izohlarni rasmiylashtirish, zaruriy adabiyotlar (bibliografiya) haqida tushunchaga ega bo‘lish);
- ishga ijobiy munosabatda bo‘lishni shakllantirish (pedagog tashabbus ko‘rsatishi, ishni belgilangan ish rejasi va tartibi bo‘yicha o‘z vaqtida bajarishga harakat qilishi kerak).

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchilarning intellektual madaniyatini rivojlantirishning integrativ ta’lim texnologiyalari, o‘stirish, globallashuv sharoitida erkin, ozod va fikran mustaqil, har qanday axborotni mantiqiy tahlil qila olish ko‘nikmasini rivojlantirishda falsafa fanining o‘qitilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Коссов Б.Б. Обобщенность содержания выс-шего образования как фактор его развития (личностно-развивающее образование) / Б.Б. Коссов // Вопросы психологии. 1995. № 6. С. 9–20.
2. Хуторской А.В. Педагогическая инноватика: методология, теория, практика: научное издание. – М.: 2005. – С.67-71.
3. Кинелев В.Г. Университетское образование: его настоящее и будущее / В.Г. Кинелев // ZMagister. 1995. № 3. С. 1–9.
4. Conrad, Clifton F. Teaching Intellectual Skills and Attitudes-of-Mind: Reflections on a Course on College and University Curriculum. TeachingEducation 1 (February, 1987), pp. 54-59.
5. Степанов С.Ю. Рефлексивная практика творческого развития человека и организаций. –Москва: Наука, 2000. –С.174